

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTINING QARORI

PUL-KREDIT SIYOSATINI YANADA TAKOMILLASHTIRISH CHORA-TADBIRLARI TO'G'RISIDA

Ta'kidlash lozimki, so'nggi yillarda respublikamizda tarif va pul-kredit sohasida ko'rilgan chora-tadbirlar inflatsiya darajasini asta-sekin pasaytirish imkonini berdi, makroiqtisodiy barqarorlik va izchil iqtisodiy o'sish sur'atlarini ta'minladi.

Shu bilan birga global moliya-iqtisodiy tizimidagi murakkab va tez o'zgaruvchan, shuningdek, valyuta munosabatlarini tartibga solishni liberallashtirish sharoitida makroiqtisodiy barqarorlik va aholining turmush darajasini oshirishni ta'minlashga qaratilgan monetar siyosatning amaldagi instrumentlarini tubdan qayta ko'rib chiqish talab etilmoqda.

2017 — 2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha **Harakatlar strategiyasiga** muvofiq, shuningdek, pul-kredit siyosatini yanada takomillashtirish, ilg'or xalqaro tajribaga muvofiq monetar siyosatning yangi instrumentlarini joriy etish, milliy valyutaning mustahkamligini va respublikada makroiqtisodiy barqarorlikni ta'minlashda uning rolini kuchaytirish maqsadida:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 2-sentabrdagi "Valyuta siyosatini liberallashtirish bo'yicha birinchi navbatdagi chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-5177-sonli **Farmoni** bilan valyuta bozorini liberallashtirish jarayonlarida davlat iqtisodiy siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida milliy valyutaning barqarorligini ta'minlashga yo'naltirilgan qat'iy monetar siyosat olib borish belgilangan bo'lib, bunda uning instrumentlaridan faol va moslashtirgan holda foydalanishni nazarda tutish, davlatning qimmatli qog'ozlar bozorini rivojlantirish, shuningdek, ochiq bozorda operatsiyalarni amalga oshirish amaliyotini hamda davlat qimmatli qog'ozlarini garovga qo'yish bilan banklarning likvidligini oshirish bo'yicha operatsiyalarning joriy etilishi ma'lumot uchun qabul qilinsin.

2. O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining ichki narxlarning barqarorligini ta'minlashda o'rta muddatli istiqbolda pul-kredit siyosati maqsadlariga erishish prinsip va mexanizmlarini xorijiy markaziy banklari tomonidan qo'llaniladigan inflatsiyaviy targetlash rejimiga o'tish to'g'risidagi taklifiga rozilik berilsin.

3. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki, Moliya vazirligi, Iqtisodiyot vazirligi manfaatdor vazirliklar va idoralar bilan birgalikda ishlab chiqilgan 2017 — 2021-yillarda pul-kredit siyosatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari kompleksi hamda **ilovaga** muvofiq inflatsiyaviy targetlash rejimiga bosqichma-bosqich o'tish taklifi ma'qullansin.

O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki (M. Nurmuratov), Moliya vazirligi (B. Xodjayev), Iqtisodiyot vazirligi (G. Saidova) rahbarlari zimmasiga Chora-tadbirlar kompleksida belgilangan tadbirlarni o'z vaqtida va sifatli bajarish yuzasidan shaxsiy javobgarlik yuklansin.

4. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki 2018-yilning 1-martigacha rivojlantirish va pul-kredit siyosatini amalga oshirishning o'rta muddatli Konsepsiyasini hamda 2018 — 2021-yillarda Konsepsiyanı amalga oshirish bo'yicha "yo'l xaritasini" ishlab chiqsin va tasdiqlasin, unda bosqichma-bosqich inflatsiyaviy targetlash rejimiga o'tish nazarda tutilsin, ular quyidagi yo'llar orgali amalga oshirilsin:

umumiqtisodiy, soliq-budget va pul-kredit siyosatini muvofiqlashtirish amaliyotini takomillashtirish, bunda iqtisodiy o'sish, davlat budgetining balanslashganligi va iqtisodiyotdagि narxlar darajasining barqarorligi bo'yicha o'zaro harakatlar va maqsadlarning kelishilganligini ta'minlashga alohida e'tibor qaratish;

likvidlikni ta'minlash va jalb qilish operatsiyalari bo'yicha pul-kredit siyosatining samarali qo'llaniladigan foiz instrumentlari turlarini kengaytirish;

tijorat banklari tomonidan foiz stavkalarini shakllantirishda, shu jumladan, kreditlar bo'yicha bozor mexanizmlarini keng joriy etish;

ilg'or xorijiy tajribaga muvofiq makroiqtisodiy tahlil va prognozlashni takomillashtirish;

olib borilayotgan pul-kredit siyosatining, jumladan amalga oshirilayotgan siyosatda qo'llanilayotgan instrumentlar va yakuniy maqsadlar to'g'risida axborot yetkazib berish yo'li bilan, shaffoflik va oldindan bashorat qilish imkoniyatini oshirish.

5. O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi, Iqtisodiyot vazirligi, Xususiy lashtirilgan korxonalarga ko'maklashish va raqobatni rivojlantirish davlat qo'mitasi, O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki 2017-yilning 1-oktabrigacha o'rta va uzoq muddatli istiqbolda Respublika moliya bozorini, shu jumladan, davlat qimmatli qog'ozlar bozorini yanada rivojlantirish Konsepsiysi loyihasini ishlab chiqsin va o'rnatilgan tartibda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga kirmsin.

6. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki, Adliya vazirligi hamda boshqa manfaatdor vazirlik va idoralar bilan birgalikda uch oy muddatda qonun hujjatlariga ushbu qarordan kelib chiqadigan o'zgartish va qo'shimchalar to'g'risida Vazirlar Mahkamasiga takliflar kirmsin.

7. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish O'zbekiston Respublikasining Bosh vaziri A.N. Aripov, O'zbekiston Respublikasi Bosh vazirining o'rribbosari J.A. Qo'chqorov va O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki raisi M.B. Nurmuratov zimmasiga yuklansin.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. MIRZIYOYEV

Toshkent sh.,
2017-yil 13-sentabr,
PQ-3272-son

O'zbekiston Respublikasi
Prezidentining 2017-yil 13-
sentabrdagi PQ-3272-son qaroriga
ILOVA

2017 — 2021-yillarda pul-kredit siyosatini yanada takomillashtirish va inflatsiyaviy targetlash rejimiga bosqichma-bosqich o'tish

CHORA-TADBIRLARI KOMPLEKSI

T/r	Chora-tadbirlar nomlanishi	Amalga oshirish shakli	Ijro muddati	Mas'ul ijrochilar
I. PUL-KREDIT SIYOSATI VA UNING VOSITALARIDAN FOYDALANISHNI TAKOMILLASHTIRISH ChORALARI				
1.	O'zbekiston Respublikasi moliya bozori, shu jumladan keyinchalik ularni uzoq muddatli loyihalarga yo'naltirish bilan iqtisodiyotda bo'shpul mablag'larini safarbar qilish, shuningdek, pul-kredit siyosatini samarali olib borish uchun zarur shart-sharoitlar yaratish maqsadida davlat qimmatli qog'ozlar bozorini o'rta va uzoq muddatli istiqbolda rivojlantirish Konsepsiysi loyihasini ishlab chiqish va belgilangan tartibda Vazirlar Mahkamasiga kiritish.	Hukumat qarori loyihasi	2017-yil 1-oktabr	Moliya vazirligi, Markaziy bank, Iqtisodiyot vazirligi, Davlat raqobat qo'mitasi, manfaatdor vazirliklar va idoralar
2.	Inflatsiyaviy targetlash rejimiga bosqichma-bosqich o'tish uchun zarur asoslar va shart-sharoitlar shakllanishiga alohida e'tibor qaratgan holda pul-kredit siyosatini rivojlantirish va amalga oshirish bo'yicha o'rta muddatli Konsepsiya va 2018 — 2021-yillarda Konsepsiyanı amalga oshirish "Yo'l xaritasi"ni ishlab chiqish.	Markaziy bank Boshqaruvi qarori	2018-yil 1-martgacha	Markaziy bank
3.	Valyuta bozori liberallashtirilganidan keyin valyuta kursi rejimi va pul-kredit siyosatini belgilash va ishlab chiqish uchun Xalqaro valyuta fondi texnik ko'magini jalb qilish.	Xalqaro valyuta fondi bilan muzokaralar olib borish	2017-yil IV chorak	Markaziy bank